

XORJIY TILLARDA MAQOLLARNING IFODALANISHI VA ULARNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**Shalola Jurayeva Xusanboyevna***Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi*

Insoniyatning davrlar mobaynida boy ma'naviy xazina yaratib, ularni avloddan avlodga madaniy meros qilib qoldirgan. Shu boy merosimizning asoslaridan biri maqol va matallardir. Xalq yaratgan bunday durdonalar yillar osha sayqallanib tarix zarvarag'idan joy olgan.

Maqollar kundalik turmushimizda, kishilarning o'zaro munosabatlarida yaratiladi va vaqt o'tishi bilan xalq xazinasiga aylanadi. u xayotning barcha jabxalarini chetda qoldirmaydi. Maqollar insonning ongini, aqliy faoliyatini oshirib, hayotda yo'nalish beradi.

Maqollarda mehnat, vatanga mehr-muhabbat, mardlik, sevgi, vafo, do'stlik, halollik, rostgo'ylik, tuyg'ulari ulug'lanib, ish yoqmaslik, yolg'onchilik, xoinlik, qo'rqqoqlik, kabi salbiy xislatlar qoralanadi, yomonlik va yovuzlikka nisbatan kurashiladi.

Maqollar ham, matallar ham o'ziga xos xalq ijodida yuzaga keladi. Ibratli so'zlar maqol darajasiga ko'tarilishi uchun, xayot qozonida qaynabmaromiga yetishi, umum xalq tomonidan tan olinishi va quyma xolda qo'llaniladigan xikmatga aylanmog'i kerak.

Maqol so'zining lug'aviy ma'nosi ham shundan dalolat beradi (maqol arabcha so'z bo'lib, aytilgan qo'llanilgan, ishlatilgan degan ma'noni bildiradi). og'zaki va yozma nutqda maqol ishlatish fikr tiniqligi, nutq ravonligi va ta'sirchanligi uchun xizmat qiladi.

Har qanday maqol tayyor va butunlik belgisiga ega bo'lib, nutqqa tayyor holda olib kiriladi. Maqollar xalq og'zakida ijodida alohida o'rin tutadi. U boshqa janrlardan farq qiladi. Mashhur rus lug'atshunosi V.I. Dal maqol va matallarni bir-biridan farqlagan holda "Matal-gul, maqol esa uning mevasidir", -degan edi.

Maqollarga matallar juda yaqin turadi. Shuning uchun ham ular doim birga qayd etiladi va birga nashr qilinadi.

Maqol obrazli ifodalangan, odatda fonetik ritm va intonatsiyaga asoslangan tugal fikr anglatuvchi pand-nasixatdir.

Matal maqoldan shunisi bilan farq qiladiki, unda sintaktik jihatidan tugallangan fikr bo'lmaydi. Maqol tushunarli va ravon bo'lib, unda aniq voqaea va xodisalar aks etadi. Shu boisdan ular yodda saqlanadi, avlodlardan avlodlarga o'tib, qo'llanilishi an'anaga aylangan.

Maqollar zamirida xaqiqatni tasdiqlab, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lib, odatda suxbatdoshga qaratiladi. Maqolda fikr qisqa va lo'nda ifodalanadi, to'g'ri va ko'chma ma'nolarda ifodalanadi

Ma'lumki fransuz, o'zbek va rus tillari leksik-grammatik jixatidan bir-biridan kata farq qiladi. Jahon xalqlari tillarida aynan bir xil yoki ma'nosi bir-biriga juda yaqin bo'lgan maqol va matallarni uchratish mumkin. Tafakkurning bunday o'ziga xos nodir maxsuli fransuz, o'zbek va rus tillari uchun ham mushtarakdir. bir-biridan hayot tarsi bilan farqlanadigan fransuz, o'zbek va rus xalqlari uchun aynan bir xil muqobil mos keladigan maqollarni faqat ma'no jihatidan olish mumkin.

Har bir xalqning sevib qo'llaydigan maqol va matallari bor.

Masalan: rus millati "Go'zallik yuzni,

So'z esa qalbni xushlaydi”

“Mehnat odamni ulug'laydi

Dangasalik esa toptaydi “

O'zbeklarda esa “Och qornim tinch qulog'im”

“Mehnat qilib topganing qandu asal totganing “ kabi maqollarni ko'proq ishlatishadi.

Lekin juda ko'p maqollarda fe'ning buyruq shakli qo'llanib, buyurish, iltimos qilish, pand-nasixat qilish, tilak-istak qilish ma'nolari aks etgan.

Masalan : “Yerdan topsang ham sanab ol

Xayr qilsang butun qil“kabi.

Fransuz millatidagi „ Pas a pas on va loin- Qimirlagan qir oshar“ maqoli o'zbek tilidagi „Harakatda-barakat“, On ne touche pas deux lievres a la fois- „Ikki quyovni quvlagan birini ham tutolmas“ maqoli esa „Ikki kemani ushlagan suvga g'arq bo'ladi“, maqoliga ma'no jihatidan teng kelar ekan. Ushbu jumalardagi so'zlar so'zma-so'z tarjima qilinsa ko'zlangan ma'no chiqmay qoladi. Ba'zi bir maqollar xabar berish, undash, tushuntirish kabi mazmunlarga ega.

Masalan;”Qarisi bor uyning parisi bor”

“Baxil to'ymas, o'g'ri boyimas”

“Yetti o'lchab bir kes”.

“Tog' bilan tog' uchrashmaydi” ammo odam bilan odam uchrashadi maqollari turli tillarda qo'llanishi qayd etilgan. Ayrim maqollarda esa, shirinso'zlik, mehribonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, mehr- oqibat, sadoqat tuyg'ulari ulug'lanib, ko'proq qiyoslanib, o'z ifodasini topgan.

“So'zing kumush bo'lsin

Ishing oltin”.

Izoh:Yaxshi gapirgandan ko'ra yashxilik qil.

“Suv ko'rmay etik yechma”.

Izoh:Ko'prikka yetmasdan uni yechib o'tma.

“Keyingi pushaymon o'zingga dushman”.

Izoh:Afsuslangandan ko'ra o'zingga ishon.

“Pichoqni avval o'zingga ur og'rimasa birovga”.

Izoh:O'zingga nimani ravo ko'rsang,o'zgaga ham shuni qil.

„Baxt g'oyibdan kelmas,

Uni qo'ling bilan yarat“.

Izoh: Bir eshik yopilguncha ikkinchisi ochiladi.

„Yuzing qoraligi uyat emas,

Yuziqoralik uyat“.

Izoh:Chiroyli yuz jirkanch qalbni niqoblashi mumkin.

„Bir sinalgan tajriba yetti kitobdan afzal”.

Izoh: Tajriba-oqillikning onasi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biz maqollardan kundalik xayotimizda to'g'ri foydalanishimiz lozim. Bizga asrlardan arslarga, avlodan-avlodga qoldirilgan bebaho boyligimizdir. Ularni tadbiiq qilib, yosh avlodni tarbiyalashda foydalansak maqsadga muvofiq bo'ladi. Maqollar insonni xayotga to'g'ri yo'llar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Lingvistik terminlar lug'ati A.S.Axmanova
- 2.Lingvistik terminlar so'zlashgich kitobi D.E. Rozental 1976.
- 3.Jo'rayeva SH.X. "PROSPER MERINING TARIXIY ROMANI XUSUSIDA". Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot. 1 (11). 1-4. 2022.
- 4.Jo'rayeva SH.X. "O'ZBEK BADIY ASARDAGI QAHRAMON MAVZUSI". Science and Education. 3 (10). 664-667. 2022.
 - 1) Jo'rayeva, S. H. (2022). X."HISTORY OF THE NOVEL AND ITS IMPORTANCE AS A GENRE". *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*.
 - 2) Khusanboyevna, J. S. (2022). History Of the Novel and Its Importance as A Genre. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 176-179.
 - 3) Khusanboyevna, J. S. (2022). History Of the Novel and Its Importance as A Genre. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 5, 176-179.
- 4) JO'RAYEVA, S. X. (2022). FRANSUZ ROMANLARIDA TARIXIYLIK VA ZAMONAVIYLIK. ROMANTIZM VA TARIXIY EPOS. ROMANTIK ADABIYOTDA TARIXIY HARAKAT MUAMMOSI. *Models and methods in modern science*, 1(1), 26-32.
- 5) JO'RAYEVA, S. X. (2022). PROSPER MERIMENING TARIXIY ROMANI XUSUSIDA. *Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot*, 1(11), 1-4.
- 6) Jo'Rayeva, S. X. (2022). O'zbek badiiy asardagi qahramon mavzusi. *Science and Education*, 3(10), 664-667.
- 7) Jo'rayeva, S. (2021, April). HISTORICAL DATES AS THE CONTENT OF VICTOR HUGO'S BIBIMARYAM TEMPLE. In *Конференции*.